Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishning ahamiyatli jihatlari, xususan, qarz kapitali orqali moliyalashtirishga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmi, uning mohiyati va moliyalashtirishning muhim jihatlari ochib berilgan, xususan, qarz kapitali orqali moliyalashtirishning ahamiyati asoslangan. Aksariyat mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda keng iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini qarz kapitali orqali moliyalashtirishning ekonometrik asoslari tahlil qilingan va moliyalashtirishni takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Davlat-xususiy sheriklik loyihalari, infratuzilmani moliyalashtirish, moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiyalash, qarz kapitali, bank kreditlari, moliyaviy leverej.

Abstract: This article focuses on the important aspects of financing public-private partnership projects, in particular, financing through debt capital. The mechanism of public-private partnership, its essence and important aspects of financing are disclosed, in particular, the importance of financing through debt capital is based. In most countries, including Uzbekistan, the main directions for the development of the broad economy have been defined. The econometric basis of financing of public-private partnership projects through debt capital was analyzed and suggestions for improvement of financing were developed.

Key words: Public-private partnership projects, infrastructure financing, diversification of financial instruments, debt, bank loans, financial leverage.

Аннотация: В данной статье рассмотрены важные аспекты финансирования проектов государственно-частного партнерства, в частности финансирования за счет заемного капитала. Раскрыт механизм государственно-частного партнерства, его сущность и важные аспекты финансирования, в частности обоснована важность финансирования за счет заемного капитала. В большинстве стран, в том числе и в Узбекистане, определены основные направления развития широкой экономики. Проанализирована эконометрическая основа финансирования проектов государственно-частного партнерства за счет заемного капитала и разработаны предложения по совершенствованию финансирования.

Ключевые слова: Проекты государственно-частного партнерства, инфраструктурное финансирование, диверсификация финансовых инструментов, заемный капитал, банковские кредиты, финансовый рычаг.



KIRISH

Dunyoda mamlakatlarning iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonida davlat hamda xususiy biznes subyektlari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar tizimi global miqyosda rivojlanmoqda. So'nggi yillarda mamlakat infratuzilmasini xususiy sektorning resurslari orqali moliyalashtirish darajasi keskin tushib ketganligi, xususan, "2022-yilda Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari 3,3 milliard AQSh dollari miqdorida infratuzilmaga xususiy investitsiyalar bilan bu mintaqadagi so'nggi 10 yildagi eng past ko'rsatkichni qayd etganligi" jahon iqtisodiyoti tarmoqlarida xususiy investitsiyalar ko'lamini oshirish, hamda davlat-xususiy sheriklik (Public-Private Partnership) amaliyotida moliyaviy munosabatlarni tashkil kengroq etish takomillashtirish hamda xususiy investorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, loyihalarda sheriklar uchun risklarni kamaytirish, xususiy sherik uchun daromad olishni kafolatlash orqali loyihaga jalb etishni kengaytirish, kapital tarkibini optimallashtirish va qo'llaniladigan moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiya qilish dolzarb ekanligini namoyon qilmoqda.

Jahonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini, xususan, infratuzilmani moliyalashtirishda xususiy sektor mablag'laridan samarali foydalanish, moliyaviy qarorlar qabul qilishning ilmiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy infratuzilmani davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklikda qo'llanilishi mumkin bo'lgan moliyaviy instrumentlarni kengaytirish, xususiy investorlarning infratuzilmani moliyalashtirish xarajatlarining bir qismini qoplash orqali moliyaviy rag'batlantirish va subsidiyalar berish vositasida manfaatdorligini oshirish, mulkiy va qarz munosabatlarida sheriklarning pozitsiyalarini belgilash, davlat kafolatlarini kengaytirish, moliyaviy risklarni adolatli taqsimlash, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining iqtisodiyot taraqqiyotiga ta'sir darajasini oshirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jalik, energetika, transport, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi sohalarni rivojlantirish dolzarb bo'lib turgan ayni vaqtda davlat-xususiy sheriklik amaliyoti va bunda yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish, ijtimoiy muhim infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda xususiy sektor mablag'laridan foydalanish borasidagi islohotlarga qaramasdan, sohaga xususiy sektor mablag'larini yo'naltirish darajasi pastligicha qolmoqda. "Davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollariga teng investitsiya jalb etish" da davlat va biznesning hamkorligini zamonaviy shakllarda tashkil etish, loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini aniqlash, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni o'zaro manfaatli sharoitlarda tezkorlik bilan hal etish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik tizimini samarali boshqarish va muvofiqlashtirish talab etilmoqda. Bu esa davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni tashkil etishtirish takomillashtirishga doir ilmiy tadqiqotlarni keng doirada amalga oshirish zaruriyatini belgilaydi.

MAVZU BO'YICHA ADABIYOTLAR SHARHI

Jahonda davlat-xususiy sheriklik amaliyotini moliyalashtirish moliyaviy munosabatlarni tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan. Jumladan: rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda infratuzilmaga xususiy investitsiya kiritishni rag'batlantirish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy-huquqiy, institutsional imkoniyatlarni yaratishda davlat-xususiy sheriklik amaliyotini yanada kengaytirish orqali davlat sektori, investorlar, mahalliy korxonalar iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishda va eng muhimi, aholining yashash tarzini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni rivojlantirish asoslari ishlab chiqilgan (The Public-Private Infrastructure Advisory Facility – PPIAF); mamlakatda infratuzilmaga investitsiyalar kiritishda xususiy sektor ishtirokini oshirish, global miqyosda infratuzilmani rivojlantirish va unda xususiy sektor ishtiroki darajasini baholab beruvchi metodologik tizim yaratilgan (The Global Infrastructure Facility – GIF); dunyoning barcha mamlakatlarida, xususan, Osiyo va Tinch okeani davlatlarida xususiy investitsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va samaradorligini ta'minlovchi mexanizmlari tadqiq etilgan (United Nations Economic and Social Commission for Asia and the Pacific – ESCAP); Yevropa davlatlarida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, infratuzilmaga investitsiyalar samaradorligini nazorat qilish jarayonlarini tadqiq etilgan (United Nations Economic Commission for Europe (UNECE) – PPP Activities); dunyoning barcha mamlakatlarida xususiy investitsiyalar hajmi, sifati va samaradorligini ta'minlovchi mexanizmlari tadqiq etilgan (International Project Finance Association – IPFA); rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirish, xususiy sektorni infratuzilmani moliyalashtirishga yo'naltirishni tashkil etish talablari va mezonlari ishlab chiqilgan (The APMG Public-Private Partnerships Certification Program); Osiyo mamlakatlarida aholining yashash tarzini yaxshilash, mamlakatlar infratuzilmasi sifatini yaxshilash, infratuzilmani maqsadli kreditlash, investitsion dasturlarni faol joriy qilish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan (Asian Development Bank's Regional and Sustainable Development Department – ADB RSDD); davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, nazariy-iqtisodiy asoslari, moliyalashtirish yo'nalishlari va shakllari doirasida ilmiy tadqiqotlar qilingan (Public-Private Sector Research Center – PPSRC); davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, uni moliyalashtirishni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-amaliy uslubiyot shakllantirilgan (Национальный Центр ГЧП – Rossiya Federatsiyasi).



Davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar, xususiy investorlarni moliya bozori instrumentlari orqali davlat-xususiy sheriklik munosabatlariga jalb etish yo'nalishlari B. Ashuri, F. Ullah, M. Thaheem, H. Sin, S. Liu, J. Sun, F. Daniel, A. Lebedovalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'rganilgan ^[1, 2, 3, 4].

T. Atamurodov va B. Xamroyevlar o'zlarining ilmiy-tadqiqot ishlarida xususiy tarmoq va davlat hamkorligi masalasi, infratuzilmani xususiy tarmoq mablag'lari hisobidan moliyalashtirishning ayrim jihatlariga to'xtalib o'tgan ^[5] bo'lsa-da, davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlar yetarlicha tadqiq etilmagan.

N. Oblomurodov tomonidan davlat-xususiy sheriklik asosida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalalariga, transport sohasida davlat-xususiy sheriklik amaliyotini moliyalashtirishning ayrim jihatlariga to'xtalib o'tilgan ^[6].

S. Yakubova esa davlat-xususiy sheriklik mexanizmi doirasida investitsion va ijtimoiy majburiyatlar ijrosini ta'minlash, maktabgacha ta'limni rivojlantirishning hududiy dasturlarini shakllantirish va ushbu dasturlarda mazkur muassasalarga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirishning moliya-kredit (soliq, investitsiya, kredit) mexanizmiga asoslangan tabaqalashtirilgan tizimini tatbiq etish masalalari borasida fikrlar bildirgan ^[7].

S. Xayitov o'zining ilmiy tadqiqotlarida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini alohida kichik hajmli moliyaviy DXSh loyihalariga ajratish orqali hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy soha tarmoqlari faoliyati samaradorligini ta'minlash borasida fikrlar bildirgan^[8].

Yana bir iqtisodchi J. Toxirov o'zining tadqiqotlarida ta'lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklikning tashkiliy-iqtisodiy elementlari tarkibidagi xususiy investitsiya, davlat budjetidan moliyalashtirish, subsidiya berish, ssuda olish va soliq imtiyozlarini joriy qilishning optimal me'yorlarini belgilash orqali ta'lim xizmatlari sifati va samaradorligini oshirishga doir ilmiy qarashlarini keltirib o'tgan ^[9].

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun yangi yo'nalishlardan biri hisoblanib, uni amalga oshirish mexanizmi va davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash shakllari, uning boshqa muqobil moliyalashtirish usullaridan farqli jihatlari, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda yangi imkoniyatlarini aniqlash, bunday loyihalarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash, mavjud risklarni pasaytirish orqali xususiy investitsiyalarni infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirishni takomillashtirish zarurligi ushbu mavzuda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni talab etadi va dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida qarz kapitali orqali ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish obyektlari normal faoliyat yuritishida zarur bo'lgan qurilish, rekonstruksiya yoki texnikaviy qayta qurollantirish (DXSh loyihasi va smeta hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizasini o'tkazish, asbob-uskunalar xarid qilish, qurilish-montaj va boshqa ishlar o'tkazilishini o'z ichiga olgan holda) hamda boshqa asosiy fondlarni shakllantirish va shu bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni moliyalashtirish imkoni mavjud bo'ladi. Loyihalarni qarz kapital orqali moliyalashtirish bir qancha afzallik va kamchiliklarga ega hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm: Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini qarz kapitali orqali moliyalashtirishning afzallik va kamchiliklari¹

1 Ilmiy tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tayyorlandi.



Qarz kapitalidan foydalanilgan davlat xususiy sheriklik loyihasida rivojlanishning yuqoriroq moliyaviy salohiyatiga va faoliyat samaradorligining o'sish imkoniyatiga ega bo'linadi, lekin loyiha davomiyligida moliyaviy risk va bankrotlik xavfi yuqoriroq bo'lishi mumkin.

"DXSh loyihalarida moliyaviy samaradorlikni baholash uchun DEA modeliga asoslangan samaradorlikni baholash tizimi asosida tahlil qilib, Tobit modelidan leveraj koeffitsiyentining DXSh loyihalarining moliyaviy samaradorligiga ta'sirini o'rgangan holda, bu qarz nisbati va operatsion samaradorlik o'rtasidagi kuchli bog'liqlikni ochib bergan. Leveraj koeffitsiyenti DXSh loyihalarining keng qamrovli samaradorligiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, bu DXSh loyihasi korxonalarining qarz bilan moliyalashtirilish darajasi uning samaradorligida aks etib, yaxshi rivojlanish istiqboliga ega ekanligini ko'rsatadi"^[10] 2. Shu sababli, qarzni moliyalashtirish korxonalar loyihalari moliyaviy samarasini kengaytirishi, korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishi va korxonalarining rivojlanishiga yanada ko'maklashishi mumkin. Boshqa tomondan, loyihalarda qarz orqali moliyalashtirish va leveraj koeffitsiyentini oshirish korxonaning inqiroz riskini oshirishi mumkinligini aks ettiradi va korxonalarining samarali ishlashini ta'minlash uchun ularning operatsion samaradorligini oshirishga, shiddatli raqobat sharoitida qo'shimcha rag'batlantirish uchun doimiy ravishda kengayib borayotgan operatsion xarajatlardan samarali foydalanish lozim bo'ladi.

DXSh loyihalarida qarzidorlik nisbati va tahlillar jarayoni shuni ko'rsatadiki, leveraj koeffitsiyentini oshirish korxonalarining ishlashi va rivojlanish samaradorligini oshirishiga erishilishi mumkin. Shuning uchun DXSh loyihasini tegishli optimal kapital tuzilmasi va leveraj nisbatini topish, shu asosda korxonaga qarzni moliyalashtirish orqali o'z rivojlanish ko'lamini kengaytirishi va operatsion xarajatlarini kamaytirish hamda uning yanada sog'lom va barqaror rivojlanishiga yordam berishi, loyiha daromadlilikini oshirishda bunday moliyaviy mexanizmlardan foydalanish mumkin bo'ladi.

Davlat-xususiy sherikligi loyihalarining qarz kapitali moliyalashtirilganda qarzlarni qoplash vositasi sifatida asosan loyiha pul oqimlarini va loyiha daromadlarini belgilanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Loyihalarni moliyalash uchun qarz kapitali milliy yoki xorijiy valyutada naqd pulsiz shaklda amalga oshirilib, qarz hisobidan xarid qilinadigan aktiv likvid bo'lgani taqdirda garov ta'minoti sifatida belgilanishi mumkin. Qarz kapitalidan foydalanish muddati loyihaning qoplanishi (Payback Period)dan kelib chiqib belgilanishi lozim. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida qarz yuki darajasida loyihaning sohasi va daromadlilikigi, davlat sherigi bilan o'zaro kelishuvga qarab belgilanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Davlat xususiy sheriklik loyihalarini qarz bilan moliyalashtirishga ta'sir etuvchi asosiy ko'rsatkichlarni ekonometrik tahlilini amalga oshiramiz. Buning uchun Jahon bankining infratuzilmaga xususiy investitsiyalar ma'lumotlar bazasi (Private Participation in Infrastructure (PPI) Database)dan qarz kapitali orqali moliyalashtirilgan 1845 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar tanlab olindi. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini qarz bilan moliyalashtirishda quyidagi gipotezani shakllantiramiz: H0: davlat-xususiy sheriklik loyihalari samaradorligini oshirishda qarz kapitali bilan moliyalashtirish yuqori ahamiyatga ega.

$$Y_{debt} = \beta_0 + \beta_1 X_{period} + \beta_2 X_{VDGS} + \beta_3 X_{private} + \beta_4 X_{physical} + \beta_5 X_{(f_leverage)} + \beta_6 X_{(intl_debt)} + \beta_7 X_{(investment_real)} + \beta_8 X_{prs} + \epsilon_i$$

$$Y_{debt} = \beta_0 + \beta_1 X_{(intl_debt)} + \beta_2 X_{(p_debt)} + \beta_3 X_{(l_debt)} + \beta_4 X_{investment_real} + \beta_5 X_{prs} + \epsilon_i$$

$$Y_{debt} = \beta_0 + \beta_1 X_{period} + \beta_2 X_{VDGS} + \beta_3 X_{private} + \beta_4 X_{physical} + \beta_5 X_{(investment_real)} + \beta_6 X_{prs} + \epsilon_i$$

Bunda, tanlab olingan omillarga qarz bilan moliyalashtirish hajmi (debt), loyiha muddati (period), loyihani davlat tomonida qo'llab-quvvatlash darajasi (VDGS), xususiy sektor ishtiroki (private), asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (physical), moliyaviy leverej koeffitsiyenti (f_leverage), loyihani xalqaro qarz bilan moliyalashtirish darajasi (intl_debt), davlat qarzi hisobidan moliyalashtirish (p_debt), mahalliy qarz bilan moliyalashtirish darajasi (l_debt), davlat-xususiy sheriklik loyihasiga yo'nlatirilgan investitsiyalar (investment_real), loyihaning daromad shakllari (prs) kiradi. Eng kichik kvadratlar metodidan foydalanib bir necha modellarni ishlab chiqamiz. Ushbu modellar orasidan asosiy uchta quyidagi jadvalga birlashtirdik (1-jadval).

2 Wang, Junzi, and Yongkang Lin. "The Study of Leverage Ratio on the Operation Efficiency of PPP Project Enterprises in China: Analysis Based on DEA-Tobit Model." 5th International Conference on Economics, Management, Law and Education (EMLE 2019). Atlantis Press, 2020.

1-jadval: Regressiya natijalari³

Qarz bilan moliyalashtirish hajmi (debt)	OLS (1)	OLS (2)	OLS (3)
loyiha muddati(period)	-18.454** (8.511)		-1.261 (1.307)
loyihani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasi (VDGS)	-.249 (0.555)		-.3*** (0.043)
xususiy sektor ishtiroki (private)	2.133 (2.138)		0.059 0.698
asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (physical)	0.483 (2.086)		-1.193*** (0.327)
moliyaviy leveraj koeffitsiyenti (f_leverage)	22.805** (9.745)		
loyihani xalqaro qarz bilan moliyalashtirish darajasi (intl_debt)	0.036 (0.333)	0.417*** (0.096)	
davlat qarzi hisobidan moliyalashtirish (p_debt)		0.189 (0.135)	
mahalliy qarz bilan moliyalashtirish darajasi (l-debt)		-.054 (.036)	
davlat-xususiy sheriklik loyihasiga yo'naltirilgan investitsiyalar (investment_real)	0.07 (1.997)	0.623*** (0.031)	1.63*** (0.289)
loyihaning daromad shakllari (prs)	38.107 (35.576)	-13.78 (19.073)	-.229 (4.353)
Constant	23.164 (220.278)	-18.39 (68.527)	61.62 (64.698)
R-squared	0.967	0.938	0.965
F-test	42.223	215.676	562.390
Akaike crit. (AIC)	296.461	1223.486	1705.759

"Robust" standart xatoliklar qavsda (ϵ) keltirilgan

*** - ahamiyatlilik darajasi $p < 0.01$ (99%);


** - ahamiyatlilik darajasi $p < 0.05$ (95%);

* - ahamiyatlilik darajasi $p < 0.1$ (90%)

Ekonometrik tahlilning dastlabki bosqichida o'zgaruvchilarning tasnifiy statistikasi keltirilib, bunda kuzatuvlar soni, o'zgaruvchilarning o'rtacha miqdori, standart chetlanish ko'rsatkichi, ularning minimal va maksimal miqdori aniqlab olinadi. Regressiya tahlilini amalga oshirishdan avval ushbu ko'rsatkichlarni korrelyatsiyasi tekshirilgan bo'lib, olingan natija regression modellarda o'zgaruvchilarni to'g'ri tanlash hamda pirovard natijani aniqroq bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, birinchi modelda loyiha muddati (period) va moliyaviy leveraj koeffitsiyenti (f_leverage) qarzga ta'sir etish qiymatlari statistik ahamiyatga ega bo'ldi. Muddatning bir birlikka ortishi qarz darajasini -18.454 birlikka kamayishiga sabab bo'ladi. Ikkinchi modelda loyihani xalqaro qarz bilan moliyalashtirish darajasi (intl_debt) bilan davlat-xususiy sheriklik loyihasiga yo'naltirilgan investitsiyalar (investment_real) qarzni ortishiga xizmat qiladi. Mos ravishda loyihani xalqaro qarz bilan moliyalashtirish darajasi (intl_debt) va davlat-xususiy sheriklik loyihasiga yo'naltirilgan investitsiya (investment_real)larning bir birlikka ortishi qarzni 0.417 va 0.623 birlikka ortishiga xizmat qiladi. Uchinchi modelda loyihani davlat tomonida qo'llab-quvvatlash darajasi (VDGS), asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (physical) va davlat-xususiy sheriklik loyihasiga yo'naltirilgan investitsiya (investment_real) koeffitsiyentlar t-test bo'yicha iqtisodiy ma'noga ega bo'lmoqda. Barcha modellarning ishonchligi F-test t-test hamda OLSning Gaus Markov shartlariga tekshirildi hamda ishonchli ekanligi aniqlandi.

³ Stata dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlandi.




2-rasm: Xususiy sektorga ajratilgan bank kreditlari (YaIMga nisbatan foizda)⁴

O'zbekistonda bank kreditlarining depozitlariga nisbati 2013-yildan 2021-yilgacha bo'lgan ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak bu davrlarda o'rtacha ko'rsatkich 146,17 foizni, 2013-yilda minimal 70,56 foizni, 2020-yilda esa maksimal ko'rsatkich 261,88 foizni tashkil qilgan. 2021-yildagi oxirgi ko'rsatkich 236,96 foizni tashkil etgan. Taqqoslash uchun, 2021-yilda 138 ta davlat bo'yicha dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 86,91 foizni tashkil etadi.

Xususiy sektorga ichki kredit hajmi bo'yicha O'zbekistonda 2013-yildan 2022-yilgacha bo'lgan ma'lumotlarni tahlil qilamiz (2-rasm). Bu davrda o'rtacha ko'rsatkich 18,09 foizni, 2013-yilda eng kam 9,33 foizni, 2022-yilda esa maksimal ko'rsatkich 37,9 foizni tashkil etgan. Taqqoslash uchun, 2022-yilda 151 ta davlat bo'yicha dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 61,27 foizni tashkil etadi.

Investitsion loyihalarni bank kreditlari orqali moliyalashtirish darajasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 17,6 foizni, 2013-yilda minimal 8,2 foizni, 2019-yilda esa maksimal ko'rsatkich 26,2 foizni tashkil etgan. 2022-yildagi oxirgi ko'rsatkich 25,8 foizni tashkil etgan (3-rasm).

O'zbekistonda qarz yuki bo'yicha joriy holat iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha mamlakatimiz bilan bir guruhga kiruvchi davlatlarning ko'rsatkichlari doirasida shakllangan bo'lsa-da, xususiy sektorga ajratilgan kreditlar yuki bo'yicha Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining (MDH) aksariyat mamlakatlariga nisbatan yuqori ko'rsatkich qayd etilgan.



3-rasm: Investitsion loyihalarni bank kreditlari orqali moliyalashtirish dinamikasi⁵

4 https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/Bank_credit_to_the_private_sector/

5 https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/firms_credit_for_investment/




O'zbekistonda va boshqa mamlakatlarda bank krediti deganda bank muassasalari tomonidan faqat xususiy sektorga: ham firmalarga, ham uy xo'jaliklariga beriladigan kredit tushuniladi. Bunda davlat qarzlari o'z ichiga olmaydi. Kredit iqtisodiyotning yaxshi ishlashi uchun zarur moliyaviy mexanizmdir. U yangi investitsiyalarni moliyalashtiradi va infratuzilmalarni yaratadi, odamlar yashash tarzini osonlashtiradi. Albatta, haddan tashqari kreditlash va qarz olish odatda moliyaviy inqirozga olib keladi, lekin kreditning mavjudligi iqtisodiy rivojlanish uchun yaxshi hisoblanadi.

Agar xususiy sektorga bank kreditlari yalpi ichki mahsulotining qariyb 70 foizini va undan ko'pni tashkil etsa, demak mamlakatda nisbatan yaxshi rivojlangan moliya tizimi mavjud. Kredit miqdori hatto ba'zi rivojlangan iqtisodiyotlarda YaIMning 200 foizidan oshib ketishi mumkin. Ba'zi kambag'al mamlakatlarda kredit yalpi ichki mahsulotning 15 foizidan kam bo'lishi mumkin. Bu mamlakatlarda firmalar va uy xo'jaliklari investitsiyalar va turli xil xaridlar uchun kredit olish imkoniga ega emaslar.

Xususiy sektorga ajratilayotgan bank kredit foiz stavkalarini O'zbekiston bo'yicha 2013-yildan 2022-yilgacha bo'lgan ma'lumotlarni tahlil qilinganda, o'rtacha ko'rsatkich 18,39 foizni, minimal ko'rsatkich 13,52 foiz (2016-yilda), 2019-yilda esa maksimal ko'rsatkich 23,61 foizni tashkil qilgan. 2022-yildagi oxirgi ko'rsatkich 21,75 foizni tashkil etgan. Taqqoslash uchun, 2022-yilda 78 ta davlat bo'yicha, ya'ni dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 11,80 foizni tashkil etgan⁶.

Bank marjasi dinamikasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekistonda 2015-yildan 2022-yilgacha bo'lgan ma'lumotlarni tahlil qilamiz (4-rasm). O'zbekiston bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich o'sha davrda 4,9 foizni, 2017-yilda minimal 3,18 foizni, 2015-yilda esa maksimal ko'rsatkich 6,32 foizni tashkil etgan. 2021-yildagi oxirgi ko'rsatkich 4,41 foizni tashkil etadi. "Taqqoslash uchun, 2021-yilda 135 ta davlatda, dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 3,61 foizni tashkil etgan"⁷.



4-rasm: Xususiy sektorga bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalari va bank marjasi, (foizda)⁸

Mamlakatimizda investitsion loyihalarni moliyalashtirishda bank kreditlari hajmi o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik loyihalarida bank kreditlari orqali moliyalashtirishda kredit liniyalarini Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasi miqdoridagi foiz stavkasiga tijorat bankining 2 foizdan ko'p bo'lmagan marjasini qo'shishda xususiy sherikka taqdim etish orqali xususiy investorlarni moliyaviy rag'batlantirish mexanizmini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi,

So'nggi yillarda umumiy qarz yuki va uning alohida tarkibiy qismlarida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Xususan, xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning yalpi ichki mahsulot (YaIM)ga nisbati ko'rsatkichi umumiy dinamikadan yuqori saqlanib qolmoqda. Qarz yuki bo'yicha tahlillar O'zbekistonda moliya tizimiga ta'sir ko'rsata oladigan bir qator xatarlar mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, O'zbekistonda kreditlarning YaIMga nisbati 25 (eng past chegara) va 75 (eng yuqori chegara) protsentil chegaralari doirasida solishtirilgan davlatlar ko'rsatkichlariga nisbatan tezroq sur'atda oshish va kelajakda ushbu o'sish darajasining saqlanib qolish ehtimoli mavjud. Mazkur ko'rsatkichning xavfli hududga o'tishi (75 protsentildan yuqori bo'lishi) tizimli moliyaviy zaifliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuningdek, har bir kredit oluvchiga to'g'ri keladigan shartnomalar soni, ya'ni bir mijozning kredit olish koeffitsiyenti o'rtacha 1,2 ni tashkil etayotganligi hisobga olinsa, kredit oluvchilar sonining ko'payib borayot-

6 https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/Lending_interest_rate/

7 https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/net_interest_margin/

8 https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/Lending_interest_rate/



ganligi kelgusida ham qarz yukining nisbatan tezroq oshishini anglatadi. Bundan tashqari, mijozning kredit olish koeffitsiyenti birdan yuqoriligi alohida kredit oluvchilar bo'yicha qarzдорlik yuki yuqori bo'lishi hamda xatarli sse-nariy holatida tizimli xatarlarga olib kelishi mumkinligini anglatadi. Aholining kam ta'minlangan qatlami ulush-ining (Kovid-19 pandemiya davrini inobatga olmaganda) kamayib borishi va ularning yuqoriroq daromadga ega bo'lgan qatlamlarga o'tishi kredit olishga layoqatli aholining ko'payishiga olib keladi. Bu esa, kreditga bo'lgan talabning oshishi natijasida aholining qarz yuki darajasining ko'payishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Daromadning minimal kafolatlari davlat va xususiy sektor o'rtasida davlat-xususiy sheriklik shartnomasida moliyaviy risklarni taqsimlash uchun samarali vosita hisoblanadi. Davlat-xususiy sherikligi loyihalarida sezilarli daromad xavfi mavjud bo'lgan taqdirda, minimal daromadlar kafolati davlat sherigi tomonidan xususiy inves-torlarni jalb qilish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan moliyaviy mexanizm sifatida qarash mumkin bo'ladi.

XULOSA

O'tkazilgan ilmiy izlanishlar va tahlillar asosida tadqiqot ishida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

1. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining tashkil etilishi har qanday moliyaviy resurslar cheklangan sharoitda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, infratuzilmani takomillashtirish va aholi turmush farovonligini yaxshilashga qulay muhit yaratilishiga xizmat qiladi;
2. Xususiy investorlarning davlat-xususiy sheriklik loyihalarida ishtirok etishidan manfaatdorligini oshirish xususiy investitsiyalar ko'lamini kengaytirish orqali infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda qo'shimcha resurslar hajmi oshishiga xizmat qiladi;
3. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida bank kreditlari orqali moliyalashtirishda kredit liniyalari foiz stavka-larini loyihalarning ijtimoiylik prinsipidan kelib chiqqan holda belgilash xususiy sherikni qo'shimcha moli-yaviy qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi;
4. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida pulning vaqt bo'yicha qiymati omilini hisobga olgan holda loyihaning kelgusida kutilayotgan daromad va xarajatlarini joriy qiymat hisobida aniqlash va diskont stavka qiyma-tini yillik qisqa muddatli davlat obligatsiyalari daromadlilik stavkalaridan kam bo'lmagan miqdorlarda belgilash orqali xususiy investorlar moliyaviy risklardan himoya qilinadi va real daromadlilik ta'minla-nadi;
5. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida bank kreditlari orqali moliyalashtirishda kredit liniyalarini Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasiga tijorat bankining imtiyozli marjasini qo'shish orqali xususiy sherikka taqdim etish xususiy sherigini arzon kapital bilan ta'minlashga xizmat qiladi.
6. Davlat-xususiy sheriklik loyihalariga qarz kapitali va kredit liniyalaridan foydalanish orqali moliyaviy resurslar jalb etish davlat-xususiy sheriklik loyihalarida xususiy kapital samaradorligini oshirish va moli-yaviy leveraj samarasiga erishish, xususiy investorning daromadining oshirish imkoniyatini yaratadi;

Foydalanilgan adaboyotlar ro'yxati:

1. Ashuri B. et al. Risk-neutral pricing approach for evaluating BOT highway projects with government minimum revenue guarantee options, *Journal of Construction Engineering and Management*, 2011.13.8. (2011), pp.545-557; Ullah F., Thaheem M.J. et al., A review of public-private partnership: Critical factors of concession period *Journal of Financial Management of Property and Construction*, 21 (3) (2016), pp. 269-300, 2016;
2. H. Jin, S. Liu and J. Sun et al., Determining concession periods and minimum revenue guarantees in public-private-partnership agreements, *European Journal of Operational Research*;
3. Daniel F. R. Quality Infrastructure: Ensuring Sustainable Economic Growth. The Center for Strategic and International Studies (CSIS). January 2017, p4.;
4. Lebedeva A.V. Privlecheniya vnebyudjetnogo finansirovaniya pri pomoshi birjevykh instrumentov dlya realizatsii proektov gosudarstvenno-chastnogo partnyorstva // *Ekonomika i menedjment innovatsionnykh texnologiy*. 2016. № 3. - Rejim dostupa: <http://ekonomika.snauka.ru/2016/03/10992>
5. Atamurodov T., Xamroyev B. Xususiy tarmoq va davlat hamkorligi. Monografiya, Toshkent moliya instituti, –T.: —Iqtisod-Moliya, 2013. - 96 b
6. Oblomurodov N.N. "Davlat-xususiy sheriklik asosida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish" "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2018 yil, 3-bet.
7. Yakubova S.S. "O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish", PhD dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2023 yil.
8. Xayitov S.B. "O'zbekiston Respublikasida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik mexanizmini takomillashtirish", PhD dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2022 yil.
9. Toxirov J.R. "Ta'lim xizmatlari sifatini oshirishda davlat-xususiy sheriklikning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish", PhD dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2022 yil.
10. Wang, Junzi, and Yongkang Lin. "The Study of Leverage Ratio on the Operation Efficiency of PPP Project Enterprises in China: Analysis Based on DEA-Tobit Model." 5th International Conference on Economics, Management, Law and Education (EMLE 2019). Atlantis Press, 2020.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

